



# NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2023- yil  
yanvar-oktabr

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-oktabr)




**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlik  
ulushi -  
56,3%**



**Aholi jon  
boshiga  
xizmatlar  
hajmi –  
8 710,5  
ming so'm**



**Xizmatlar  
sohasidagi  
korxonalar va  
tashkilotlar  
ulushi – 68,0%**





**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(1- noyabr holatiga ko'ra)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(1- noyabr holatiga ko'ra)


Soni, birlikda



## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup>



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2023- yil yanvar-oktabr)



<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2021-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan


## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-oktabr)


Nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	O'sish sur'ati, % <i>da</i>	Ulushi, <i>% da</i>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>9 259,2</b>	<b>111,7</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	3 753,9	115,4	40,6
Zarafshon sh.	1 163,2	112,7	12,6
G'ozg'on sh.	27,7	111,5	0,3
Karmana t.	1 280,5	107,0	13,8
Konimex t.	204,9	110,1	2,2
Qiziltepa t.	846,3	110,8	9,1
Navbahor t.	511,7	107,2	5,6
Nurota t.	371,0	108,3	4,0
Tomdi t.	104,4	106,8	1,1
Uchquduq t.	289,0	107,7	3,1
Xatirchi t.	706,6	108,6	7,6

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) qiymat vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-oktabr)




## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-oktabr)



## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

(yanvar-oktabr)




Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **56,3** foizni, shu jumladan, **16,8** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

(2023- yil yanvar-oktabr)



■ Hajmi, mlrd. so'mda

● O'sish

## Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-oktabr)


Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>9 259,2</b>	<b>111,7</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	352,9	120,9	3,8
Moliyaviy xizmatlar	2 231,2	129,2	24,1
Transport xizmatlari	1 425,5	100,8	15,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 257,9	103,6	13,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	571,2	102,7	6,2
Savdo xizmatlari	2 762,3	105,9	29,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	149,0	103,0	1,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	349,3	123,0	3,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	125,1	104,3	1,4
Ijara xizmatlari	116,4	96,0	1,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	143,5	107,3	1,5
Shaxsiy xizmatlar	254,0	103,8	2,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	454,9	123,1	4,9
Boshqa xizmatlar	323,9	110,9	3,5

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.




## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-oktabr)




## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-oktabr)



## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-oktabr)




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Navoiy shahri ning ulushi **62,3** foizni yoki **1 390,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022-yilning yanvar-oktabr** oylariga nisbatan Navoiy shahrida yuqori o'sish sur'ati **132,2** % ni tashkil etdi.

■ Hajmi, mlrd. so'mda    ○ O'sish

Transport xizmatlarining umumiy hajmi da avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **88,2 %**.


Navoiy shahrida transport xizmatlari hajmi **322,5** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **110,5%**ni tashkil etgan.

## Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr)




## Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2023- yil yanvar-oktabr)



## Avtotransport xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr)

**2023- yil yanvar-oktabr** avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 257,9** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,6 %** ni tashkil etdi.



### Navoiy viloyati

1 257,9

103,6%

**Hududlar kesimida transport xizmatlari**

### Navoiy sh.

219,4

114,1%

(2023- yil yanvar-oktabr)

### Qiziltepa

216,8

104,7 %



### Karmana

181,1

100,6%

### Zarafshon sh.

156,8

100,2%

### Xatirchi

146,4

101,8%

### Navbahor

109,7

102,9%

### Nurota

86,1

101,7%

### Uchquduq

58,9

100,8%

### Konimex

53,6

103,9%

### Tomdi

25,1

102,8%

### G'ozg'on sh.

4,0

107,9%

### 2023- yil yanvar-oktabr oylarida


avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yo'lovchi tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **63,6 %**. Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yuk tashish xizmatlarining ulushi **36,4** foizni tashkil etdi.

**Hajmi, mlrd. so'mda** ● **O'sish**


**2023- yilning yanvar-oktabr** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **81,3 %** ni tashkil etdi.



## Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr)




## Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2023- yil yanvar-oktabr)






## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr)

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2023- yilning yanvar-oktabr** oylari-da ularning ulushi **95,8** foizni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-oktabr)



## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-oktabr)




2023- yil yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2023- yil yanvar-oktabr)




## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)

2023 - yil yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash sohasining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 1,4 %ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-oktabr)



## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi

(yanvar-oktabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **85,1** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar


(2023- yil yanvar-oktabr)






## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlari ustunlik qildi – **88,6** foiz.




## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2023- yil yanvar-oktabr)



■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish

## Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-oktabr)



## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2023- yil yanvar-oktabr, mlrd. so'mda)


Navoiy viloyati	116,4
Navoiy sh.	28,3
Xatirchi	14,5
Zarafshon sh.	14,0
Qiziltepa	13,6
Navbahor	12,5
Karmana	10,7
Nurota	8,8
Uchquduq	7,6
Konimex	4,7
Tomdi	1,4
G'ozg'on sh.	0,3

**2021- yilning yanvar-oktabriga** nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **7,3** mlrd. so'mga oshib, **116,4** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-oktabr** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlari-ning ulushi **79,2 %** ni tashkil etdi.




## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)




Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **51,8** foizini tashkil etadi.


## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlar (2023- yil yanvar-oktabr)



## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)



## Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-oktabr, mlrd. so'mda)



2021-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **125,4** mlrd. so'mga oshib, **454,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Zarafshon shahrining ulushi **75,4** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 79-223-63-31

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlari va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.